




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

24 mart, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 24 mart 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,424% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,794% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 6,794% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,332% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 9,588% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,588% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,112% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,429% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,429% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,196% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,462% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,825% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,607% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,825% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-6,825% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,62-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,70% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasaydi va — 3,62% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,111% (3 oylik) va 2,406% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,406% (6 oylik) va 2,2% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 1241,0 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 537,2 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 091 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 192 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,57% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




24.03.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *BRB* bankda qayd etilgan – 12 180 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 205 – 12 260 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Asia Alliance bank*da qayd etilgan – 12 160 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 150 – 12 100 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: qisqa muddatli tebranishlar saqlanib qolmoqda

2026 yil 16–20 mart kunlari oralig'ida USD/RUB kursi 81,5 dan 85,9 gacha o'zgardi. Kursdagi ushbu tebranishlar bir qator omillar uyg'unligi bilan izohlanadi: jahon valyutasining mustahkamlanishi, neft narxlaridagi o'zgarishlar hamda Rossiya Markaziy bankining harakatlari. Shuningdek, global moliya bozorlaridagi yuqori volatillik va investorlarning foiz stavkalari hamda iqtisodiy siyosat bo'yicha kutishlari ham ta'sir ko'rsatdi.

Rubl hamon tashqi va ichki makroiqtisodiy omillarga sezgir bo'lib qolmoqda, qisqa muddatli kurs tebranishlari esa davom etmoqda.



RUB/CNY: rubl yuanga nisbatan mustahkamlanmoqda

2026 yil 16–20 mart kunlari oralig'ida rublning yuanga nisbatan kursi 11,3 dan 12,1 RUB/CNY gacha oshdi. O'sishning asosiy omillari — neft narxlarining barqarorlashuvi, Xitoy bilan tashqi savdoning faollashuvi hamda Rossiya Markaziy bankining chorarlari bo'ldi.

Qo'shimcha ravishda, valyuta kurslaridagi tebranishlar va qisqa muddatli bozor spekulatsiyalari ham ta'sir ko'rsatdi. Volatillik saqlanib qolmoqda, bu esa rublning tashqi va makroiqtisodiy omillarga sezgirligini aks ettiradi. Shu bilan birga, qisqa muddatli tebranishlar davom etayotgan bo'lsa-da, rubl yuanga nisbatan mustahkamlanishni namoyon etmoqda.




EUR/USD o'smoqda: yevro dollarga nisbatan mustahkamlanmoqda

O'tgan hafta yevro dollarga nisbatan o'sishni davom ettirib, 1,1524 dan 1,1595 EUR/USD darajasigacha ko'tarildi. Yevro hududidagi kuchli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda Yevropa Markaziy bankining foiz stavkalarini oshirish ehtimoli haqidagi signallari valyutani qo'llab-quvvatladi.


Shu bilan birga, global noaniqlik va moliya bozorlaridagi tebranishlar fonida dollar zaiflashdi. Bozor ishtirokchilari iqtisodiy yangiliklar hamda mintaqadagi tashqi siyosiy barqarorlikka faol tarzda munosabat bildirdi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



Oltin narxlari pasaymoqda: \$4487 gacha tushdi



2026-yil 16–20-mart kunlari oralig'ida oltin narxlari \$5011,9 dan \$4487,7 gacha pasaydi. Ushbu pasayishning asosiy sabablari — AQSh dollarining mustahkamlanishi hamda AQSh davlat obligatsiyalari daromadliligining oshishidir. Bundan tashqari, inflyatsiyaning barqarorlashuvi fonida investorlar tomonidan oltinga bo'lgan talabning kamayishi ham narxlarga qo'shimcha bosim o'tkazdi. Geosiyosiy xatarlar hanuzgacha bozorga ta'sir ko'rsatmoqda, biroq ularning ta'siri vaqtincha kuchli dollar bilan muvozanatlandi. Hozirgi vaqtda oltin bozori qisqa muddatli bosim ostida qolmoqda, ammo u makroiqtisodiy va geosiyosiy omillarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo'lib qolmoqda.

Brent nefti narxlari o'sish trendini davom ettirmoqda



2026-yil 16–20-mart kunlari oralig'ida Brent markali neft narxlari 100,21 AQSh dollardan 112,19 AQSh dollar/barrelgacha oshdi. Ushbu o'sishning asosiy drayverlari — OPEK+ davlatlari tomonidan neft qazib olish hajmining qisqartirilishi, global talabning ortishi hamda neft zaxiralarning kamayishidir. Shuningdek, bozorga geosiyosiy xatarlar va valyuta kurslaridagi tebranishlar ham ta'sir ko'rsatmoqda. Fundamental omillar Brent nefti narxlarining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda.

TTF o'sishi: qisqa muddatli cho'qqilar



2026-yil 16–20-mart kunlari oralig'ida TTF xabidagi gaz narxlari 58,3 AQSh dollardan 68,3 AQSh dollar/megavatt-soatgacha oshdi. 19-mart kuni narxlar 71,1 AQSh dollar/megavatt-soat darajasida cho'qqiga chiqdi. O'sish Yevropada sovuq ob-havo fonida talabning ortishi hamda taklifning cheklanganligi bilan izohlanadi. Volatillik yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bozor esa ob-havo va geosiyosiy omillarga nisbatan sezgirligicha qolmoqda. Yaqin kunlarda narxlarning 65–72 AQSh dollar/megavatt-soat diapazonida konsolidatsiyalanishi kutilmoqda.

Yangiliklar

UBS AQShda litsenziya oldi

UBS Group AG rasmiy ravishda AQShda bank litsenziyasini qo'lga kiritdi. Bu esa bankka mijozlar uchun xizmatlar ko'lamini kengaytirish, jumladan kreditlash, depozitlar qabul qilish hamda kapitalni boshqarish xizmatlarini taklif etish imkonini beradi.

Mazkur qaror bankning dunyodagi eng yirik moliyaviy bozor hisoblangan AQShdagi pozitsiyalarini yanada mustahkamlaydi.



VTB korporativ mijozlar uchun yangi xizmatlarni ishga tushirmoqda

VTB Bank biznes mijozlar uchun mahsulotlar qatorini kengaytirdi, jumladan kreditlash va hisob-kitob hamda kassa xizmatlarini taklif etish imkoniyatini yaratdi.

Bank iqtisodiy faollik oshayotgan fonida korporativ mijozlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirmoqda.



Tinkoff keshbekli kredit kartalarini rivojlantirmoqda

Tinkoff Bank yangi kredit kartalarni e'lon qildi, ularning keshbek va bonus dasturi kengaytirilgan.

Ma'qsad — yosh auditoriyani jalb qilish va raqamli savdoni oshirish.



BNP Paribas

Bank Yevropadagi tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalar hajmini oshirishini e'lon qildi va "yashil" moliyalashtirish uchun milliardlab yevro ajratishni rejalashtirmoqda.

